

QADRIYATLAR INSON MA'NAVIY KAMOLOTIGA TA'SIR ETUVCHI MUHIM OMIL

Rahmonova Nigina Aminjonovna
Nizomiy nomli TDPU mustaqil tadqiqotchisi

Har bir qadriyatning negizida, mohiyati va ahamiyatida tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari yotadi. Qadriyatlar inson ma'naviy kamolotiga ta'sir etuvchi muhim omil hamdir.

Qadriyatlar yo'nalishi sifatidagi "Men" nafaqat kognitiv tarkibiy qismlarni, balki insonning ichki yo'nalganligida muhim o'rin tutuvchi hissiy-irodaviy tarkibiy qismlarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, o'z navbatida pedagogik qadriyatlarni bunday xilma-xilligi ularni umumiy tarzda ta'limiy va tarbiyaviy qadriyatlarga ajratishga imkon beradi.

Ta'limiy qadriyatlar shaxsga ilmiy-nazariy bilimlarni berish, unda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, uning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishida muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan, shuningdek, o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi obyektiv va subyektiv omillar majmuasidir.

Tarbiyaviy qadriyatlar ijtimoiy hayot va inson ongida xilma-xil muddatlarda mavjud bo'lishi, mazkur qadriyatlarning barcha jamiyatlar uchun bir xil ahamiyatga ega bo'lmashligi, tarbiyaviy tizimlarda mavjud bo'la olishi va pedagogik samaradorlikni belgilashga xizmat qiladi. Ana shu bilan bog'liqlikda tarbiyaviy qadriyatlar absolyut – shu jumladan, genetik manbadan yuzaga keluvchi umuminsoniy qadriyatlar, vaqt bilan bog'liq – aniq-tarixiy; barqaror – mental, etnik; individual-shaxsiy kabi turlarga bo'linadi.

Agar qadriyat din, mafkura, san'at kabi ijtimoiy ong shaklidan alohida ajratib qaralsa, u holda uning mustaqil ma'no-mohiyatiga nisbatan shubha uyg'onadi. Chunki inson yoki jamiyatning biror-bir ehtiyojlarining qondirilishi nafaqat moddiy, balki ideallik bilan aloqadorlikni aks ettiradi. Ehtiyojning o'zi ham ijtimoiy hayotning qator shart-sharoitlari va o'ziga xosliklarini aniqlab beradi. Demak, qadriyat inson va jamiyatning tashqi olamga munosabatining, ularning ichki ehtiyojlari va voqelikka munosabatlari bilan uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladi. Mazkur munosabatning barqaror xususiyat kasb etishi inson faoliyatining maqsadi va motivlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi "qadriyatli yo'nalganlik" atamasi bilan ifoda etiladi.

Pedagogik aksiologiyaga doir adabiyotlarda “qadriyatli ustanovka” tushunchasi ham uchraydi. Garchi ko‘pchilik mualliflar “qadriyatli yo‘nalganlik” va “qadriyatli ustanovka” tushunchalarini sinonim sifatida qo‘llashsa ham M.Rokich ular orasidagi farqni alohida ajratib ko‘rsatgan. Uning fikricha, ustanovkani ma‘lum bir obyekt (aniq yoki abstrakt, shaxsiy yoki ijtimoiy)ga yoki vaziyatga nisbatan subyekt munosabatida aks etuvchi uzoq vaqt davomida shakllangan bir qancha ishonch, e‘tiqodlar majmui deb qarash mumkin. Demak, yo‘nalganlikda shaxsning jamiyatdagi me‘yorlar bilan inson ehtiyojlari uyg‘unlashuvi aks etsa, qadriyatli ustanovkada shaxsning amaliy faoliyatda mazkur munosabatlari tizimini ro‘yobga chiqarishga tayyorligi aks etadi.

B.Xodjayevning ta‘kidlashicha, shaxs o‘zining ichki pozitsiyasini anglashi va aniq qadriyatlar bilan bog‘liqlikda amaliy faoliyatga tayyorligi qadriyatli ustanovkaning mohiyatini belgilab beradi. Ustanovka shaxsning aniq faoliyatga tayyorgarlik holatini aks ettiruvchi kognitiv va affektiv (emotsiya, hissiyot) komponentlar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. “Qadriyatlar tizimi” muayyan ijtimoiy subyektlarga (shaxs, millat, jamiyat va boshqalar), biron bir davr, tarixiy bosqich yoki soha bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyat shakllarining o‘zaro aloqadorligi va chambarchas bog‘liqligini ifodalaydigan tushunchadir. Tizim, tuzilish, tizimni tashkil etuvchi qismlar, tizimlilik asosida yondashish usuli kabi muammolar, ularning mohiyati, mazmuni va ahamiyatiga doir falsafiy fikrlar pedagogik-psixologik adabiyotlarda nihoyatda misollar ko‘p. tizimlilik prinsipi esa ilmiy bilish va tadqiqotlarning asosiy usullaridan biriga aylangan. Eng muhimi, ana shu prinsip va uni ilmiy bilishda namoyon bo‘lish qonuniyatlarining aksiologik tadqiqotlar, qadriyatlar va qadriyat tizimlarining amaliyotini tahlil qilishda kashf etadigan o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish muhimdir. Bu borada tarixiylik mezonining qo‘shilishi hamda masala tizimlilik va tarixiy usul qoidalaridan aksiologik tizimlarga tatbiqan foydalanish tarzida qo‘yilayotgan muammoni yanada dolzarblashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, tizimli, subyektiv va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar va qadriyatga yo‘naltirilgan faoliyatning o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda “qadriyat” tushunchasi o‘quvchi-talabaning kasbning ijtimoiy ahamiyatini to‘liq anglab yetilganligi tavsifida bo‘lg‘usi pedagogik faoliyatga subyektiv munosabati va bahosini ifoda etishini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Вегас Х.М.. Ценности и воспитание. Критика нравственного релуативизма. СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та; Изд-во Рус. христ. гуманит. акад., 2007 .- 225 с

2. Temirova N.E. «Talaba yoshlarning ma'naviy shakllanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi» UDK: 17.022.1-057.87 (575.1)374.32 (575.1). Toshkent-2017. B.150
3. Botirov B.M. «O'zbek milliy xarakteri shakllanishiga qadriyatlar ta'sirining psixologik xususiyatlari» p.f.n. dis. T.: 2011. - 166 b.